

BOSHLANG‘ICH SINFDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

To‘xtasinov Dadaxon Farhodovich

P.f.b.f.d.(PhD), Farg‘ona davlat universiteti

Gafurova Mahfuza Abbosovna

P.f.b.f.d.(PhD), Farg‘ona davlat universiteti

Abdullayeva Sabohat Hamidjon qizi

Magistr, Farg‘ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Biz quyida keltirmoqchi bo‘lgan fikrlarimizda boshlang‘ich sinfda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari, ijod va ijodkorlik atamalari, tafakkur tushunchasiga to‘xtalib o‘tganmiz. Bu orqali mavzuyimizni yoritib berishga harakat qilganmiz.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ijodiy tafakkur, ijodkorlik, tafakkur.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta’kidlaganlaridek “Matematikani yaxshi bilgan taraktorchi shudgor qilgan yerning unumдорлиги yuqori bo‘ladi”- degan edilar matematikaga to‘xtalar ekanlar. Ma’lumki, matematika bu hisob kitob qilishdir. Hayotimizning o‘tib borayotgan har lahzasi hisob kitoblidir. Shunday ekan farzandlarimizning matematika faniga bo‘lgan qiziqishlarini ortirish, ularning ta’lim olishlari uchun sharoit yaratib berishimiz zarur. O‘qitish jarayonining turli tomoni mavjud; o‘qituvchi ta’lim beradi, o‘quvchi uni qabul qiladi, o‘qitishning ushbu usuli faqat o‘qituvchiga bog‘lanib qolmay o‘quvchining bilimini amalda qo‘llay olishiga , ijodiy mustaqilligi ham qaraydi, hatto o‘qituvchining o‘z ustida ish olib borishiga o‘quvchilarini ta’lim jarayoniga faol qatnasha olishlariga qarab baholash mumkin; matematika o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil aqliy va amaliy ishlarini tashkil qila olgan pedagog usta pedagogdir. Ta’lim berish jarayonida asosiysi, pedagogning bor bilimini, fikrini bayon qilishi emas, balki o‘quvchilarning o‘zlashtira olishlaridir. Bu so‘zlar albatta matematika o‘qitishdagi masala yechish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni ko‘zda tutib aytilgan deyish mumkin. Matematika o‘qitishda o‘quvchilarning bilim doirasi va ularning diqqatini jalb qilishi, ular oldiga kelajakda yechishga to‘g‘ri keladigan masalalar va muammolarni qo‘yishi kerakligini yuksaltirishda oldingi o‘rinlarda turishiga e’tibor

qaratamiz.

1-4-sinflardagi ta'lim boshlang'ich ta'limni qamrab oladi va bu o'quvchilarning har bir fan bo'yicha doimiy bilim olishlarini, ularda bilim egallash ehtiyojini, asosiy va umumiy bilimlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, amaliy ko'nikmalarini ijodiy fikrlash va tabiatga ongli munosabatda bo'lish va kasb tanlashni bo'yicha mavjud bilimlarini rivojlantiradi.

O'quvchilarning ijodiy tafakkurini yanada takomillashtiishning va oshirishning mazmuni quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni o'rgartishda va ularni amalda qo'llashda fikrni mustaqil ravishda ishlatish.

2.Bilib olish qobilayatini ko'tarish (masaladan masala hosil qilish)

3.Har tomonlama psixik rivojlanishi, ya'ni tegishli ijodiy sifatlarning tashkil topishi, aqliy mehnat jarayonida qiziqishning ortishi, o'quv faoliyatni tushunadi.

Quyidagi misollarni ko'raylik:

1. Tomonlari 18 cm va 12 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetрini hisoblang. Xuddi shunday perimetrga ega bo'lgan kvadratning tomoni uzunligini toping.

Yechish: $(18+12) \cdot 2 = 60$ $60:4=15$ Javob:15 cm

2. 1. Fermerning tovuqlari va quyonlari bor. Bu tovuqlar va quyonlarning xammasi bo'lib 5 ta bosh va 14 ta oeqdan iborat. Fermerning nechta tovuq va quyonlari bor.

Taxlil qilamiz: agar boshlari 5 ta bo'lsa, 2 ta quyonni oeg'i 8ta. 3 ta tovuqning oeg'i 6 ta, demak, 2 ta quyon, 3 ta tovuq.

Bu masalani algebraik uchul bilan tenglama tuzish orqali ham yechish mumkin:

x-quyonlar

5-x -tovuqlar

$$4x+2(5-x)=14$$

$$4x+10-2x=14$$

$$4x-2x=4$$

$$2x=4$$

$$x=2 \quad \text{demak, quyonlar} 2 \text{ ta, tovuqlar } 3 \text{ ta.}$$

3. Men bir son o'yladim, uni 7 ga ko'paytirdim, 15 ni qushganimda 50 hosil bo'ldi. Men qanday son o'ylaganman?

$$(50-15):7=35:7=5$$

4. Sotuvchi o'yladi: "Olmalarimga ularning yarmini, hatto o'ntasini qo'shsam, unda butun 100 hosil bo'ladi" Sotuvchida nechta olma bor?

$$100-10=90 \quad 90:2=45 \quad \text{Sotuvchida dastlab } 45 \text{ ta olma bo'lgan.}$$

Shunday qilib, o'quvchilarni ijodiy tafakkurlarini rivojlantirish bu-

o‘quvchilarning bilimlarini yuksaltirish va amalda qo‘llash mustaqil aqliy va amaliy faoliyatni rivojlantirish asosida har tomonlama yuksalishini nazarda tutadi.

O‘quvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirish faoliyatini uyushtirishda o‘qituvchining ro‘li kattadir. Shubhasizki, bunda ijodiy tafakkur tushunchasini singdirish joiz bo‘lar edi.

“**Ijod**» so‘zining lug‘aviy ma’nosи: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so‘zlariga to‘g‘ri keladi.

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va yangi g‘oyalar ijodkorlikning inson ongida eng oliv tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy tafakkurini yuksaltirish uchun yetarli muhit yaratish deganda, avvalo ana shu muhitning amalga oshishi va rivojlanishi jarayonini nazarda tutadi.

-o‘quvchilar ijodiy tafakkurni ko‘tarishhda ularning mavzu borasida egallashi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari.

-ijodiy tafakkurini rivojlantirishda nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish.

-ijodiy tafakkurini rivojlantirishga oid mashg‘ulotlar yuqori darajadagi holatlarni nazarda tutadi.

-o‘quvchilarda ijodiy tafakkurini yuksaltirishda texnologik yondashuv.

Biz ba’zi narsalarni va voqeа-hodisalarni, masalan, alohida daftarni yoki kitobni ko‘ramizqilamiz va tasavvur qilamiz, ammo umuman daftar va kitob to‘g‘risida, umuman o‘quv qurollari va umuman narsa to‘g‘risida esa fiklashimiz mumkin. Umumlash natijasida bir hukmnинг o‘zida ayni vaqtida yakka bir narsa to‘g‘risidagina fikr qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga narsalarning butun bir turkumi to‘g‘risida ham fikrlaymiz. Odamlarning ehtiyojlari, hayotiy qiziqishlari va faoliyatlar turli xildir. Shu sababli, insonning tafakkuri ham turli hollarda har xil turda ko‘rinadi. O‘rganish uchun kerak bo‘lgan vazifalarni va har xil amaliy vazifalarni hal etishga to‘g‘ri kelib qolganida, shuningdek, boshqa odamlarning fikrlarini nutq orqali va amaliy muomalada bilib olishga, tushunib olishga to‘g‘ri kelganda inson o‘z fikrini aytadi. Shu tariqa ijodiy tafakkur va tushunish, anglash deb ataladigan tafakkur paydo bo‘ladi. Tafakkurning shakllanishi qay darajada bo‘lishiga qarab, u ixtiyoriy va ixtiyorsiz tafakkurga ajratiladi, tafakkurning umumiylashganlik darajasiga qarab, u aniq va abstrakt tafakkurga, yo‘nalishiga qarab, u nazariy va amaliy tafakkurga kiradi.

Paydo bo‘lgan savollarning javobini inson o‘zi qidirib topsa, qo‘yilgan vazifalarni inson o‘zi hal qilgan bo‘lsa, insonning ongida yangi hukmlar va tushunchalar paydo bo‘ladi, bunday hollarda **ijodiy tafakkur** tug‘iladi.

Vazifa, masala — yechilishi, hal qilinishi talab etilgan savoldir. Ifodalangan vazifa *maqsadni* ham o‘z ichiga oladi. Bu maqsad noma’lumni topishga va shu tariqa hayronlik, taajjublanish va gumon hislaridan qutulishga intilishdan iboratdir. Tafakkurning murakkab jarayonlaridagi maqsadni ilodalashning o‘zi, ko‘pincha, murakkab faoliyat bo‘ladi. Bunda nimalar ma’lum va noma’lumligini hisobga olishga, masala qanday vaziyatda yechiliyotganligini hisobga olishga, yechilayotgan masalaning ahamiyatini tushunib olishga to‘g‘ri keladi. Tafakkur jarayonining shundan keyingi bosqichi — javobni izlashdan masalani hal etishga olib keladigan yo‘llarni, vositalarni, qoidalarni, usullarni qidirish va tatbiq qilishdan iborat bo‘ladi. Qo‘yilgan savollarga beriladigan javoblarni ba’zan idrok qilinayotgan tevarak-atrofdagi vaziyatdan qidirishga to‘g‘ri keladi. Bunday hollarda tafakkur jarayonlaridagi odamning kuzatuvchilik qobiliyati katta ahamiyatga ega bo‘ladi.”

Masalalarni yechish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish o‘quvchilarning matematik bilimlarning kengaytirishlari uchun hozirlik ko‘radi. Balki masalaning matni ustida mustaqil fikr yuritish qidirishdan iborat bo‘lishi kerak .

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, bu mashqlar o‘quvchilarga ma’lum bo‘lgan (yoki o‘rganilgan) matematik materialga asosan ishlab chiqarilgan.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni davrida o‘quvchilar 1-sinfdan boshlab yuqori miqdorda turli xildagi tushunchalarni o‘rganib oladilar. O‘quvchilar o‘rgangan bilimlari asosan, har bir sinf va har bir fan doirasida berilgan o‘quv dasturida belgilangan. O‘quvchilar olgan bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’riflab berolmay qolganlarida yoki ta’riflash mumkin bo‘lmagan paytlarda misollar bilankundalik hayotga bog‘lab ko‘rsatib aytib yoki tushuntirib berishadi. Bu orqali ularda ijodiy tafakkur rivojlanadi va takomillashadi. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish haqida gapirganda, o‘qituvchining qandaydir qo‘srimcha ishi ko‘zda tutiladi desak yanglish fikr qilgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga 1 quramiz-2017
2. Boshlang‘ich sikrlashga o‘rgatishinflarda ijodiy f.Tafakkur haqida umumiyl tushuncha tafakkur turlari tafakkur va boshqa psixik jarayonlarhttps://hozir.org/tafakkur-haqida-umumiyl –tushuncha-tafakkur-turlari-tafakkur-va.html
3. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida test metodini qo‘llashda STEAM dasturini imkoniyatlari.metodik qo‘llanma.Toshkent-2022

4. Mardonov Sh.Q Yangi ta’limiy qadryatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malaksini oshirisning pedagogic asoslari.- Ped fan dok T.Fan 2006
5. Mavlonova R., To‘rayeva R., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – T. : O‘qituvchi, 2002
6. Boltayeva SH. Boshlang‘ich ta’limda o‘kuvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta’limi, 2004, № 3.
7. Alijon, A., Xoldorovich, S. Z., & Abbosovna, G. M. kizi, MMA.(2022). Technology of Individualization of Learning. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 291-297.
8. Gafurova, M. A. (2022). Improving Mental Skills Of Students By Analyzing And Solving Problems. *Current Research Journal Of Pedagogics*, 3(01), 40-44.
9. Gofurova, M. A. (2020). Development of students’ cognitive activity in solving problems. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(81), 677-681.
10. Gafurova, M. A. (2021). Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(10), 236-242.
11. Gafurova, M. (2021). Intellectual and Cognitive Activities of School Pupils. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(2), 447-450.
12. Gofurova, M. A. (2020). Развитие познавательной деятельности учащихся при решении задач. *Theoretical & Applied Science*, (1), 677-681.
13. Odina, S., & Mohira, X. (2022). BOSHLANG ‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O ‘QUVCHILARNING MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(14), 38-41.
14. Asimov, A. (2019). USING PROBLEMS AND TRAINING STUDENTS TO PROBLEM. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(8), 348-352.
15. Alijon, A. (2023). BERILGAN RASMLI MASALALAR USTIDA IJODIY ISHLASH USULLARI. *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA İLMİY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(15), 859-861.
16. Zokirova S.M About the congruent phenomenon in the conteastive linguistics.Sciences of Europe(8-2)(8) 45-46